



SUG'ORISH TARTIBLARINI SOYA O'SIMLIGI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI.

Saidxadjayeva Dilsoraxon Abdurahmonovna

Aqxai katta o'qtuvchisi

Ibrohimova Shodiyona Kamoliddin qizi

Aqxai talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori sifatli ozuqabop o'simlik hisoblangan so'ya o'simligini sug'orish tartiblarini vaqtida va to'g'ri belgilash tog'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: transpiratsiya koeffisienti, evotranspiratsiya, chegaraviy dala nam sig'imi, tuproqning to'la dala nam sig'imi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 14- martdagi "2017-2021- yillarda respublikada soya ekishni tashkil etish va soyali dukkakli ekinlar yetishtirishni ko'paytirish chora tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2832- son qarori hamda 2017-yil 24- iyundagi PQ-3144- qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan to'ldirilishi respublikada soyachilikni rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Soya o'simligini ekishning yaxshi tamoni shundaki bu o'simlik ekilgan tuproqning unumdorligi oshishi bilan birga soya ildizlaridagi azot to'plovchi tuganak bakteriyalarning faoliyati natijasida tuproqqa biologik azot to'planishiga va boshqa o'simliklar yillar davomida o'zlashtira olmagan tuproqdagi mavjud fosforli og'itlarni o'zlashtirishga erishiladi.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz Andijon viloyatidagi donli va dukkakli o'simliklar ilmiy tekshirish institutining tajriba xo'jalik yerlarida o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekilgan

soyaning ertapishar navlarini sug'orish tartiblarini aniqlash ustida o'tkazildi. Tadqiqotlarimizni 1-2-3- variantlarida soyaning Slaviya navi 4-5-6- variantlarida esa Gavhar navlariadan natijalar olindi.

1-variantimizda sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-65, sug'orish tizimi 1-1-0 qilib belgilanganda bir tupdagi gular soni 10dona bir tupdagi dukkaklar soni 44.2 donani, ming dona donning vazni 260 grammni tashkil etib o'rtacha hosildorlik 20 sentnerni tashkil qildi

Sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 75-75-70, sug'orish tizimi 1-1-1 qilib belgilanganda bir tupdagi gular soni 11.0dona bir tupdagi dukkaklar soni 49.1 donani, ming dona donning vazni 275 grammni tashkil etib o'rtacha hosildorlik 24 sentnerni tashkil qildi. Qolgan variantlarimizda gavhar navi ekilgan variantizda 1- variantga yaqin natijalar olindi, eng yaxshi natija hosildorlik 2-variantda kuzatildi (1-jadval)

Sug'orish tartiblarini soya o'simligi hosildorligiga ta'siri

1-jadaval

Variante tartibi	Sug'orish oldi tuproq namligi CHDNS % hisobida	Sug'orish tizimi	Bir tupdagi gullari soni, dona	Bir tupdagi dukkaklar soni, dona	1000 dona donning vazni, gr	Hosildorlik s/ga
Slaviya						
1	70-70-65	I-I-0	10	44,2	260	20
2	75-75-70	I-I-I	11.0	49,1	275	24
3	75-80-75	I-II-I	11	49,2	250	21
Gavhar						
4	70-70-65	I-I-0	10.5	44,2	250	21
5	75-75-70	I-I-I	11.3	47,1	255	22
6	75-80-75	I-II-I	11,6	49,2	260	21



Xulosa. Soya o‘simligini suv bilan ta‘milanganligi yaxshi maydonlarda ekish yaxshi samara beradi va respublikamiz olimlari tavsiyalariga to‘la amal qilgan xolda soyani sug‘orish tartiblari va me‘yorlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa yuqori hosil olishni garovi bo‘lib hizmat qiladi, hamda sug‘orish oldi tuproq namligi CHDNS 75-75-70, sug‘orish tizimi 1-1-1 etib belgilanganda yuqori hosil olinishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilillo Abdug‘ani o‘g, A. (2023). AYRIM SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINING SOYANING GAVHAR NAVI RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 590-593.
2. Abdulkafizov, X., & Abidjonov, R. (2023). SUG‘ORISH TARTIBLARINI SO ‘YA O‘SIMLIGI RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 3), 79-81.
3. Soya agrotexnikasi (fermerlar uchun tavsiyanoma) Toshkent-2017
4. Nematov.U.M. Isashov. A. Takroriy ekin soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda sug‘orish tizimlarini asoslash. Monografiya Toshkent 2021-yil.